

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-DEKABR, 2024

AMIRIYNING XORAZM SHOIRLARI IJODIGA TA'SIRI

Hilola Raimova

FarDU 2-bosqich doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Amiriy ijodi, uning xos xususiyatlari, shuningdek, Amiriyning Xorazm adabiy muhiti ta'siri masalasi haqida so'z yuritiladi. Ikki adabiy muhit ijodkorlarining g'azallari badiiyat nuqtai nazaridan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: adabiy muhit, g'azal, obraz, ijodiy ta'sir, mahorat, o'ziga xoslik, oshiq, ma'shuqa, badiiy san'atlar

Badiiy adabiyotning asosiy quroli bo'lgan so'z serjiloligi bilan adabiyotning yashovchanlik xususiyatini yuzaga keltirgan. Badiiy so'zning ushbu bitmas-tuganmas imkoniyatlaridan oqilona foydalana olish ijodkorlardan katta mahoratni talab qiladi. Shoirlarning maqsadi va vazifasi o'zigacha yaratilgan imkoniyatlarni o'zlashtirish va yangilarini yaratish. Ijodkorning o'ziga xosligi va mavqeい shu bilan belgilanadi. Shu ma'noda o'zbek mumtoz she'riyatining zabardast vakillaridan biri bo'lgan, ahli shuaror orasida nazokatsohib shoir sifatida e'tirof topgan [1,24] Amiriy she'riyatining ham badiiy ifoda tarzi, tasvir usullari va vositalari sof sharqona mazmun va shaklga ega. Aynan mana shu Sharq adabiyotidagi mezonlar Amiriy ijodining badiiy barkamolligini ta'minlashga xizmat qilgan. Amiriy ijodida u yoki, bu badiiy tasvir vositalaridan holi, shunchaki ifodalangan baytlar yo'q. Bu uning adabiyotning asl mohiyatini tushunib yetganligidan va unga qat'iy amal qilganligidan dalolat beradi.

Amiriy Qo'qonda ulkan adabiy muhitga asos solib, o'z davrida badiiy adabiyotni birmuncha yuqori cho'qqiga olib chiqish bilan bir qatorda boshqa adabiy muhitlar rivojiga ham sezilarli darajada ta'sir o'tkazgan. Jumladan, Xorazm adabiy muhiti vakillari ham Amiriyyadan ta'sirlanib, unga ergashib qator g'azallariga tatabbular qilganlar, taxmislari bog'laganlar, uning ijodidan ilhomlanib hamohang baytlar yaratganlar. Albatta, u yoki, bu shoir ta'sirida yaratilgan she'rlar, bayt-u misralar, bir shoir qo'llagan timsol-u tashbehlarning boshqa shoir ijodida yangi qirralari bilan namoyon bo'lishi goh yarq etib ko'zga tashlansa, gohida yashirin ko'rinishda bo'ladi. [2,27] Amiriy ijodi Xiva adabiy muhitida ham mashhur bo'lgan. Xorazmlik shoirlar Amiriyning devonini sevib mutolaa qilib, ham turkiy, ham forsiy g'azallariga tatabbular qilganlar, taxmislari bog'laganlar [3,195]. Jumladan, Xorazm adabiy muhitining yirik ko'zga ko'ringan vakillaridan biri Ogahiy ham Amiriyning "Qil", "Muborak", "Sallamno" kabi g'azallariga betakror tatabbular bitgan. Shu bilan birga, Amiriyning qator g'azallaridagi shoxbaytlarga ham o'xshatmalar qilgan, mazmunni saqlagan holda betakror baytlar yaratgan. Uning o'zlarini ilhomlantirgan bayt-u misralari mazmuniga monand baytlar yaratganlar, u qo'llagan timsol-u tashbehlarning yangidan yangi qirralarini ochganlar. Chunonchi, Amiriy bir g'azalida :

Amiri ishq erurman, ko'zlarim ravshan jamolingdin,

Mani Majnun, sani sho'xi pariruxsor dermishlar. [4,92]

deya lirik qahramon o'zini ishq mulkining amirimani deb yozg'irar ekan, yorining jamolini ko'rgan oshiqning ko'zları baxtdan ravshan bo'lganligini aytadi. Xalq oshiqning bu ahvolini ko'rib Majnun-u devona, mashuqasini esa jafokash pariruxsor deya nomlaydi. Yana bir baytida:

Mulki dil Amirimani, ishq shahrining shohi,

Har biri Falotundur, dargahimda chokarlar. [4, 102]

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-DEKABR ,2024

Mumtoz adabiyotda ko‘ngil yaratganning jilva qiladigan makoni , tajalliysi jo bo‘lgan mo‘tabar maskan sifatida tilga olinadi. Aynan shuning uchun ham bir ko‘ngilni sindirish Ka’batullohni vayron qilishga tenglashtiriladi. Ushbu baytda Amiri o‘zini ishqda kamolga yetgan, yorning yetkazgan azoblarida toblangan va alal oqibat aynan shu ishq mamlakatining amiriga aylangan timsol sifatida gavdaladi. Ya’ni oshiq bu yerda ko‘ngil mulkining amiri, ishq shahrining, Yaratganning jilvasi aks etgan beqiyos maskanning shohiga o‘xshatiladi. Ikkinci misrada kamolga yetgan ishq sohibining xizmatidagi qullar ham Aflatuni zamondek donishmandga aylangan qiyofada gavdalanadi.

Visoli davlatidin ishq mulkining Amiriman,

Necha Shirin ila Layli erur, yorimg‘a o‘xhatma.

Mazkur baytda ham oshiq ishq mulkining Amiriman deb bong urar ekan uni, ya’ni oshiqni bunday o‘ziga ishonib gapirishiga kuch bergen narsa Yorining visoli. Yorning diyordini ko‘rgach uni bunday exson qilishidan boshi ko‘kka yetgan oshiq o‘zini amirlardek his qiladi. Va keyingi misrada oshiq fikrini davom ettirib, necha Shirin-u Laylilarni oldimga keltirsangiz ham ularning hech birini men o‘zimning yorimga o‘xhatmayman deb jar soladi.

Xiva adabiy muhitining asoschisi Muhammad Rahimxon Feruz ham o‘z davrida ilm-u ijod ahliga homiylik qilgan, o‘zi ham qator asarlar yozgan benazir iste’dod sohiblaridan edi. Feruz boshchiligidagi adabiy muhit Qo‘qon adabiy muhiti ijodkorlaridan, jumladan, Amiri ijodidan suv ichib, shu asosda barkamol badiiy muhit sifatida bo‘y ko‘rsatgan. Qardosh adabiy muhit vakillari Amiri g‘azallariga tatabbu va taxmislar bog‘lash bilan bir qatorda uning bir-biridan serjilo va betakror baytlariga, badiiy topilmalariga yangicha ma’no yuklaganlar. Chunonchi, Muhammad Rahimxon Feruz Amiriyning “Ishq mulkining Amiriman” mazmunidagi baytiga o‘zgacha usulda yondoshadi:

Ishq eli shohiman, vale oshiqining qatorida,

Ushbu hazinin ul pari ko‘ziga ilmadi, netay? [5,102]

Ushbu baytda lirik qahramon o‘zini ishq elining, muhabbatdan kuygan bag‘ri qaro elning shohiman deya yozg‘irar ekan, bu o‘rinda o‘zini muhabbat dardiga mutbtalo bo‘lgan har qanday kishidan ham uning g‘ami bisyor ekanligiga ishora qiladi. Ya’ni men o‘sha kuyganlardan ham kuygan shohman deya yozg‘iradi. Oshiqqa alam qilgan narsa mashuqasi uni shu ahvolda ko‘rib ham pisand qilmaydi. Eng achinarlisi, uni ham o‘zining bir oshiqlaridandirda deya beparvo bo‘ladi. Bu beparvolik oshiqni battar hijron o‘tida yondiradi. Ishq mulkining amiri bo‘lish bu – chinakam ishq, chinakam oshiqlik maqomi degani. Chunki, amir-u shohlar oddiy xalqni boshqarib ularga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadilar, turli masalalarda maslahatlar beradilar. Endi ishq mulkining shohi ham ana shunday boshqalardan ajralib sevadi, insonlarga ishqdan, uning ozorlaridan dars o‘tishga qodir. Hech kimga o‘xshamas azoblari bor uning…

Amiriya yana shunday bir bayt mavjud:

Manki iqlimi muhabbatning Amiridurman,

Xayli g‘am lashkarim - u, dog‘ - hasham, oh – alam.[4,244]

Xuddi shu mazmundagi baytni Xorazm adabiy muhitining yana bir zabardast vakillaridan biri Munis ijodida ham uchratish mumkin.

Ishq mulki shahimen, xayli balodur sipahim,

Maddi ohim alamim, shulasi gulzori yalov. [6,101]

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-DEKABR ,2024

Munis ushbu baytda ishqidan, hijron azobidan kuygan oshiq tasvirini bayon etar ekan o‘zini oshiqlik mamlakatining podshohi deb tanishtiradi. Ishqidan kuygan, yurak-bag‘ri pora bo‘lgan oshiqning holatini yoritish jarayonida ijodkorning tazod va tanosub san’atlaridan foydalanganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu yerda oshiq ma’shuqaning bergan azoblari natijasida shu holga yetganki, boshiga tushgan balo-yu ofatlardan qo‘sishin tuzgan, oh-u fig‘onlari esa ana shu qo‘shtinning bayrog‘i. Keltirilgan barcha misollarda oshiq o‘zini ishq mulkining amiriman, shohiman deya boshiga shu ishq tufayli kelgan balolar haqida so‘zlaydi. Aslida ular bu holatda gadolarning gadosi ekanligiga ishora qiladi. Ko‘rinadiki, Amiriy ishqidan boshiga kelgan g‘amlarni lashkarim desa, Munis ham aynan shu darddan kelgan balolarni sipohlarga o‘xshatadi. Zero, ishq saltanatining amirlariga balo-yu g ‘amdan boshqa yana kim ham xizmat qilardi.

Boshqa bir g‘azalda Amiriy o‘zini gado, ma’shuqasini esa shoh deya ta’riflab, hukmdordan bir qulga inoyat qilishini so‘raydi:

Man gadoyi notavondurman, eshitmaydur Amir,

Haddin oshdi bu eshikda shay’alillohim maning. [4,170]

Amiriy mamlakat hukmdori bo‘lsa-da, ishq bobida o‘zini gadodan ham ortiq darajada xoksor sanaydi. Yorimning menga bergen azoblari shu darajaga borib yetdiki, oxir oqibat men “gadoyi notavon”ga aylandim, lekin shu ahvolga solib qo‘ygan mohital’at yorim menga beparvo ,deya zorlanadi. Hijron azobidan dili hasta bo‘lgan oshiqning nolalari shu darajaga borib yetganki, ma’shuqasining eshigida gadolardek nola qilib, hatto bu nolasi butun olamni larzaga solmoqda. Baytda shoir ustalik bilan tazod san’atidan foydalanganki, “Amir” so‘zini ham taxallus, ham ma’shuqa ta’rifi sifatida qo‘llab, o‘zining gadolig‘ holatini yanada ta’sirli holda namoyon etmoqqa urinadi va bu orqali husn mulkining amiri bo‘lgan ma’shuqadan inoyat kutadi. Bir so‘zni ikki xil ma’noda qo‘llash orqali iyhom san’atini ham yuzaga keltirgan.

Oshiqning o‘zini gadoga tenglashtirib, ma’shuqasini esa shohga qiyos qilish mumtoz adabiyotda ko‘p uchraydigan hodisa. Demakki, an’ana. Lekin har bir ijodkor mana shu an’anani yangicha talqin qilish orqali o‘z uslubini namoyon etgan. Jumladan Xorazm adabiy muhitining asoschisi Muhammad Rahimxon Feruz ham Amiriy singari yurtga, xalqqa hukmdor bo‘lsa-da, ko‘ngil ishi oldida hamisha ojiz-u notavon, qul sanaydi o‘zlarini:

Sen husn shohidursen, rahm ayla bu gadoga‘,

Kelmasmu hech rahming bu zor-u mubtalog‘a. [5,134]

Ushbu baytda oshiqning holatini yoritish uchun tazod va tanosub san’atlaridan foydalilanilgan.

Husn mulkida erursan podshoh,

Xo‘blardur ostoning bandasi. [7,59]

Yuqorida misralarda ham Ogahiy ma’shuqasiga podshoh deya murojaat qilar ekan Amiriy boshlab bergen an’anani davom etfiradi. Hattoki jannat hurlari ham yorining ostonasida bandiligin ta’riflash orqali uning husnda tengi yo‘q ekanligiga ishora qiladi.

Biz Yuqorida nomini tilga olganimiz so‘z san’atkorlarining ijodiy o‘ziga xosligi, avvalo, ma’lum tarixiy davr mahsuli sifatida o‘sha davr ijtimoiy-madaniy zaminidan oziqlangan holda shakllanadi. Demak, adabiy uslub o‘sha davrga xos bo‘lgan ijodiy prinsplar, adabiy usullar, shakl va mazmun munosabatlarida, shuningdek, muayyan an’analarga ega bo‘lgan omillar natijasida yuzaga keladi. An’ana masalasida so‘z borar ekan, birinchi navbatda, ushbu atamaning mazmun- mohiyati

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-DEKABR ,2024

haqida yetarlicha tasavvurga ega bo‘lish lozim. An’ana bu – bizning tushunchamizda, qotib qolgan, bir qolipdagi hodisa emas, balki kelgusida rivojlantirilishi, muvoffaqiyatli davom ettirilishi, yangi-yangi qirralari kashf etilishi lozim bo‘lgan adabiy-estetik hodisadir.[8,70] An’ana badiiy adabiyotdagi o‘lmas g‘oyaviy asoslar bilangina cheklanib qolmaydi. Ijodkor uslubi, asarlari tili, adabiy usullari, syujet va obrazlari ham an’ana zaminidan oziqlanadi. Buni yuqoridagi ijodkorlar asarlari misolida ham ko‘rib turibmiz. Amiri yiodini o‘rganish asnosida ham uning aynan shu an’anani o‘zlashtirgan holda o‘z tili va uslubini yarata olgan ijodkor ekanligiga guvoh bo‘ldik. Ushbu xususiyat Xorazm adabiy muhitining zabardast vakillari ijodida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Jumladan, Amiri bir g‘azalida shunday yozadi:

Lablaringmu qildi zohir sabzayi xatting safo,

Yo ziloli Xizr, yo sarchashmayi kavsarmidur.[4,109]

Bu baytda shoir ma’shuqaning labini qiyoq qilar ekan, u Xizr suvimi, yoki kavsar bulog‘imi deya ikkilanib qoladi.

Diniy rivoyatlarning taraqqiyot bosqichlarini ko‘zdan kechirish shuni ko‘rsatadiki, islam dini bilan bog‘liq bo‘lgan payg‘ambarlar obrazi xalq og‘zaki ijodida maromiga yetib, folklor asarlari va Qur’oni karim orqali yozma adabiyotga ko‘chgan. Ana shunday obrazlarga xos belgi va xislatlarga ijodkorlarning ishoralar qilishi orqali obrazli ifoda yuzaga keladi.[9,81] Shoirlarimiz obrazlarning an’anaviy sifatlarini saqlagan holda, ularni yangicha g‘oyaviy bo‘yoqlar bilan bezaydilar. Natijada , “ijodkorning tafakkur mevasi sifatida yangi obrazlar va tasviriy ifoda vositalari maydonga keladi”[10,88]. Bu esa shoirdan yozma adabiyot an’analarini, salaflari ijodini yaxshi bilihni, yozma adabiyot va an’anaviy obrazlar munosabatlarining bilimdoni bo‘lishni talab etadi. Mumtoz adabiyotimizda Yusuf, Iso, Ayyub, Sulaymon , Nuh, Hizr kabi payg‘ambarlar; Qorun, Iskandar, Majnun singari tarixiy shaxslar obrazlari juda ko‘p tilga olinadi. Bu obrazlar o‘ziga xos yetakchi belgilari bilan oshiq va ma’shuqaning biror sifatini tasvirlashda, umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan g‘oyalarni ilgari surishda, inson va uning qadr-qimmatini belgilab berishda, hayot va uning saboqlari haqida kishilarga pand-nasihatlar qilishda muhim o‘rin tutadi. Amiri ijodida ham Hizr alayhissalom siymosiga qayta-qayta murojaat qilinganligini ko‘ramiz. Mumtoz adabiyotdan yaxshi ma’lumki, Hizr o‘zining rang-barang hislatlariga ega bo‘lib, uning uchun ilk nisbat doimiy barhayotligi, tiriklik suvining egasi ekanlidigidir.Hizrnning tiriklik suvi jionsizga jon ato qilishga qodir. U kecha-yu kunduz olam kezib yuradi. O‘rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan tasavvurlarga ko‘ra u nuroni chol sifatida gavdalanadi. Hizrga yo‘liqqa kishi bir umrga baxtli bo‘ladi. Xalq uni Xo‘jai Hizr, Hizr bobo, Hazrati Hizr nomlari bilan yuritadi. Amiri o‘z g‘azallariga olib kirgan Hizr obrazi tiriklik suvining egasi sifatida namoyon bo‘ladi va bu xislati bilan mashuqaning labi-yu og‘ziga o‘xhatiladi:

Har kishi ko‘nglida o‘z maylicha bordur orzu,

Hizrga obi baqo, mango labi jonon xavas.[4,130]

Folklor va yozma adabiyotda , xususan, klassik she’riyatda Hizr va uning sifatlaridan badiiy vosita sifatida foydalanib, ma’shuqaning botiniy va zohiriylar xislatlari, ulug‘vorligini ko‘rsatish, insonni tarannum etish, mubolag‘ali tasvirlar orqali o‘quvchi e’tiborini tortish maqsadi ko‘zda tutilgan bo‘lsa, ajab emas. Xorazm shoirlari ijodiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, jumladan, Ogahiy lirkasida ma’shuqaning go‘zalligini ko‘rsatib berishda, uning ko‘rki, jamolini aks ettirishda Hizr obrazidan vosita sifatida foydalanadi:

Furqat qaro shomi g‘ami zulmotiga kirgan,

Bir hizr edim, chashmai hayvonima yetdim.[7, 354]

Shoirning lirik qahramoni o‘zini Hizr deb ataydi. U Hizrdek chashmai hayvon, ya’ni tiriklik bulog‘i izlab yurgan edi, va nihoyat u izlagan narsasini topdi. Tiriklik suvi ma’shuqaning labidir.Oshiq o‘z niyatiga yetdi va shu bilan ayriliq ham barham topdi. Amiriya ham, Ogahiyda ham tiriklik suvi ma’shuqa labi ma’nosida kelyapti, biroq endi Ogahiy o‘zini Hizrman demoqda. Albatta, Hizr singari tiriklik suvini, ya’ni ma’shuqa labini izladi va oxir oqibat topdi. Biroq Amiriyning o‘xshatishi haddi a’losiga yetkazilgan, juda ortiq darajada tasvirlangan. Ya’ni Amiriy Hizr tiriklik suviga mushtoq bo‘ldi va natijada uni topdi, men esa mana shu suvdan qimmatliroq ma’shuqamning labin sharbatidan totishni orzu qiladi.

Munis esa quyidagicha ifodalaydi:

Yo‘qtur manga Hizrekim, to obi hayoti vasl

Topsam anga yo‘l furqat zulmotida boshqotrib.[6,76]

Ushbu baytda lirik qahramon ayriliq zulmatida qancha bosh qotirib, iztirob cheksa ham unga, toki tiriklik ramzi bo‘lgan yorining visoli nasib etmas ekan, Hizr ham uning uchun yo‘qlik kasb etadi.

Umuman olganda, Hizr alayhissalomning o‘ziga xos bo‘lgan sifatlari ma’shuqa sifatlariga qiyoslanar, yohud ma’shuqa Hizrdanda yuksakka ko‘tarilar ekan, bu albatta, Amiriy boshlab bergen an’ananing davomi sifatida bo‘y ko‘rsatadi. Xassos shoir Amiriyning serjilo ijodi va uning Xorazm adabiy muhiti ijodkorlari asarlariga ta’siri masalasi hali davom etadigan izlanishlardan hisoblanadi.

Foydalanimanligi adabiyotlar ro‘yxati:

1. Zohidova D. Amiriy ijodidagi poetik talqinning ayrim qirrari xususida. “Amiriy va Qo‘qon adabiy muhiti” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. “Tamaddun” Toshkent - 2017 24-bet.
2. Qobilova Z. Navoiy va Amiriy. Monografiya Toshkent-2019 27-bet
3. Qobilova Z. Badiiy ijodda ta’sir va izdoshlik. -Toshkent: Tamaddun, 2021.
4. Amiriy. Devon .O‘zbekcha she’rlar. Nahsrga tayyorlovchilar Z.Qobilova, O.Davlatov. “Tamaddun” Toshkent-2017. 92-bet
5. Muhammad Rahimxon Feruz. Elga shoh-u ishqqa qul. Toshkent. G‘ofur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 103-, 134-bet
6. Shermuhammad Munis Xorazmiy. Saylanma.Toshkent. G‘ofur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1980. 101-bet
7. Ogahiy. Devon. Asarlar II jild. G‘ofur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent -1972. 59-bet
8. Jo‘rayev Habibullo.Alisher Navoiy lirkasida voqelik va uning poetic talqinlari (O‘ziga xoslik va an’anaviylik asosida) 10.01.03-O‘zbek adabiyoti tarixi ixtisosligi bo‘yicha filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.Toshkent. 2008. 247 sahifa.Olingan sitata 70-bet.
9. Matyoqubova Tozagul Rajabovna. Ogahiy she’riyatida an’anaviy obrazlar talqini. 10.01.03-Milliy adabiyot tarixi ixtisosligi bo‘yicha filologiya fanlari nomzodi ilmiy darjasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent.2001. 134 sahifa. Olingan sitata 81-bet.

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-DEKABR ,2024

10. Rafiddinov S. Majoz va haqiqat. Toshkent-1995. 88-bet